

**LEKSIK LUG'ATNI BOYITISHDA QO'LLANADIGAN METODLAR.
(ITALYAN VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

Burxonova Mohinur Akbarovna

Roman-german filologiyasi fakulteti

Ispan va italyan filologiyasi kafedrası

2-kurs 2312-guruh 94 869 52 55

burxonovanuriya9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sadikova B.M.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada italyan tilining leksik lug'atini o'rganishda qo'llanadigan metodlar va ba'zi omillar keltirilib o'tiladi. Bular orqali til o'rganish jarayonini qanday qilib tez hamda samarali amalga oshirish mumkinligi qayd etilgan. Qo'llanilgan usul hamda keltirib o'tilgan namunalar orqali tahlil qilinib, xulosalar asosida o'z yechimini topgan.

Kalit so'zlar: meta-ta'lim, mnevmonika, assotsiatsiya, "Malevich kvadrati".

Hozirgi kunda, turli chet tillarni o'rganishga bo'lgan talablar oshib bormoqda. Shundan kelib chiqib, til o'rganuvchilarning nafaqat grammatik balki, so'zlarni ham tez va samarali yodlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy tillar qatorida italyan tili ham o'zining jozibador ohangi va musiqaviyligi bilan ajralib turadi. Yurtimiz bilan olib borilayotgan keng miqyosdagi aloqalar yoshlarining bu tilga bo'lgan ishtiyoqini oshirib bormoqda.

Hozirda ta'lim sifati va qisqa vaqtda natijaga erishishning yechimi o'laroq meta-ta'lim texnologiyalari dunyodagi barcha ta'lim texnologiyalari ichida birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini tezlatishga asoslangan [4.5b]. Jarayon nafaqat til o'rganish uchun balki, boshqa sohalarda ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Yoshlar o'rtasida tillarni qisqa fursatda samarali o'rganishga to'sqinlik qilayotgan omillardan eng muhimi leksik lug'at boyligining yetarlicha emasligidir. Ammo bu muammoga ham yechim bor albatta va bu "mnevmonika" usuli hisoblanadi.

Mnemonika ([qadimgi yunoncha](#): μνημονικόν – eslab qolish san'ati) — sun'iy [assotsiatsiya](#)lar hosil qilish yo'li bilan xotirada saqlashni osonlashtiruvchi va uning hajmini kengaytiruvchi usullar tizimidir. Mnevmonika atamasi [yunon mifologiyasi](#)dagi xotira ma'budasi nomi bilan bog'liq [4.9b]. Mnemonika haqida so'z yuritar ekanmiz, miyaning ishlash tempini o'rganish maqsadga muvofiq.

Miya ikki qismdan iborat bo'lib, chap yarimshar asosan, mantiqqa, o'ng yarimshar esa emotsiyalarga javob beradi. Chap yarimshar matnli xotira hisoblanadi:

turli xil soʻzlar, matnlar, raqamlar, faktlar, analizlar va hokazo. Oʻng yarimshar esa emotsional xotira boʻlib, besh ta his tuygʻu: koʻrish, eshitish, hid sezish, taʼm bilish va taktil xotirani oʻz ichiga oladi. Chap yarimshar 10% eslab qolish potensialiga ega. Oʻng yarimshar esa 90% maʼlumotni saqlab qoladi [4.4b].

Yaxshi xotiraning uch asosi bu tasavvur, assotsiatsiya va joylashtirish. Tabiiyki, savol tugʻiladi biz **tasavvur**lar orqali oʻylaymizmi yoki miyamizda matnlar paydo boʻladimi. Tasavvurlar 80% eslab qolish kuchiga ega. Zamonasining eng mashhur fizigi Albert Enshteynning soʻzlari ham bu borada bejiz aytilmagan: “Tasavvur bilimdan ustunidir”. Yaxshi xotira asoslaridan biri bu - tasavvur. Inson xotirasi tasavvurlarga bogʻliq, yaʼni xotiramizdagi muhrlangan maʼlumotlar tasavvur obrazi orqali yana ham yaxshi ishlaydi. Misol uchun, badiiy asar oʻqiyotganda uni “ongimizdagi ekranda kino” qilib koʻrsak, u xotirada uzoqroq qoladi[1.9b]. Yaxshi eslab qolish asoslaridan biri bu mukammal tasvir kvadratidir. Ammo barcha tasvirlar ham foydali boʻlmasligi mumkin, bu borada baʼzi bir xususiyatlarga amal qilish lozim.

1. Tasvir - unsurlardan iborat. U qanchalik mayda unsurlardan iborat boʻlsa, miya shunchalik bor imkoniyatini ishga soladi va obʼyekt xotirada mustahkamroq saqlanib qoladi.

2. Tasvir - ulkan boʻlishi kerak. Misol uchun, uzun koʻchaning oxiridagi mashina xuddi noʻxat doni kattaligidek, mitti tasvirda koʻz oʻngimizda gavdalanadi. Aksincha, yaqindan razm solinganida mutlaqo oʻzgacha tasvirdadir. Yaqinlashgan sayin unda kichik detallar koʻpayadi.

3. Tasvir - yorqin, gʻaroyib va rangdor boʻlishi lozim.

4. Obraz - ulkan boʻlishi kerak. Jumladan, bunda doskaga chizilgan kvadratni koʻz oʻngimizda paydo qilsak, yaxshi natijaga erisha olmaymiz. Agar “Malevich kvadrati” sanʼat asarini yodga olsak, esda saqlashni osonlashtirish uchun kvadratning uchlariga mazkur qoidalarni yozib qoʻyish kifoya. Kvadratda 4ta burchak boʻlganidek, qoidalar ham 4 tadir[1.11b]. Maʼlumot oʻrnida, Leonardo da Vinchi oʻz xotirasini rivojlantirish uchun quyidagi mashqlarni bajargan: biror-bir predmetni olib, unga yaxshilab razm solganicha suratni chizar edi. Soʻng uxlashdan avval yoki uyqudan uygʻongandan keyin-sahar chogʻi tasavvuridagi oʻsha predmetni uzoq koʻrib chiqar va eng yaxshi suratlar bilan taqqoslagan. Miyasida eskiz sifatida tayyor boʻlgunga qadar oʻylashda davom etgan[1.12b]

Assotsiatsiya - aloqadorlik, oʻzaro bogʻliqlik, yaʼni psixologiya va falsafa fanlarida oʻrganilishicha, shaxs ongida aks ettirilgan va uning xotirasida mustahkamlangan individual hodisalar oʻrtasidagi tabiiy ravishda yuzaga keladigan bogʻliqlik. Bu aloqadorlik tasvirlarni qayta kodlashga yordam beradi[1.30b]

Eng oxirgi asos esa bu - toʻgʻri joylashtirish. 1930-yilda kanadalik neyroxirurg Ualyder Penfild tajribasiga koʻra, bemorlarda epileptik tutqanoqni bartaraf etish uchun miyaning maʼlum qismini olib tashlash imkoniyati mavjudligini aniqlashga harakat

qilib, turli tadqiqotlar o'tkazdi. U bemorlar miyasining ayrim qismlarini kuchsiz elektr quvvati bilan qo'zg'atganda, opertasiya vaqtida hushida bo'lgan bemorlarning xotirasi bir lahza tiklangan-u unitilgan, o'tmishdagi turli voqea-hodisalar ko'z o'ngida paydo bo'lgan. Elektrod miyaning yana o'sha qismiga qayta ta'sir ko'rsatganida, yana o'sha xotiralar takrorlangan [1.33b]. Ushbu g'aroyib tajriba bir qarashda barcha muammo yanglish ko'rinadigan yodlash texnikasida emas, chunki miyamiz noyob va bizda aqlbovar qilmas xotira imkoniyatlari mavjud. Tajribadan ko'rinib turibdi-ki, ma'lumotlarni to'g'ri tartibda joylashish va u ma'lumotlarni zarur vaqtda osongina topish imkoniyatini beradi [1.34b]. Shuningdek, miyamiz tartibga moyil. Miya kompyuter kabi ishlaydi va unda fayllar va papkalar sanalarga muvofiq toifalangan. Miyamizdagi ma'lumotlar xronologik tartibda saqlansa va ortiqcha viruslardan o'z vaqtida tozalab turilsa, to'g'ri joylashtirib borilsa-yodda saqlash qobiliyatimiz, ya'ni kerakli faylni tez topish jarayoni osonlashadi [1.34b].

Til o'rganishni boshlash uchun yoshning ahamiyati yo'q. Agar imkoniyat hamda vositalar to'g'ri tanlansa, bu muddatni kamida ikki marta qisqartirish mumkin [1.39b]. Bizning til o'rganish salohiyatimizga ta'sir ko'rsatadigan omillar: kitob o'qish, sport bilan shug'ullanish, doimo tartibga amal qilish, sog'lom uyqu hamda miyaning o'z maromida faoliyati uchun shug'ullanib turish lozim. Sitseron ta'kidlaganidek, "Agar mashq qilib turilmasa, xotira kuchsizlanib boradi".

Til o'rganish jarayonini qanday qilib tezlashtirish u qanday ishlashini tushunish muhim. Bunda 4 ta ko'nikma mavjud bo'lib, ularga: 1. Grammatik qoidalarni yodlash; 2. So'zlarni tinglash orqali to'g'ri talaffuz qilish; 3. Jummalarni o'qish orqali tarjimasini tushunish; 4. Bexato yozish.

CILS va Multilevel imtihonlari sinovlarida aynan shu ko'nikmalar tekshiriladi. Albatta, bu ko'nikmalarning o'z navbatida grammatik qoidalarni bilish hamda so'z boyligi asosida hosil bo'ladi [1.39b].

Italyanacha so'zlarni yodlash uchun quyidagi 3 qadamlarga asoslanish mumkin: 1. Bir so'zni o'zbekchada o'qiymiz va bu so'zning tasvirini tasavvur qilamiz; 2. Biz italyan tilidagi so'zni o'qiymiz, uning tarjimasini talaffuz qilamiz va talaffuziga o'zbek tilida yaqinroq bo'lgan so'zni topib, "bizning mana shu so'zga o'xshar ekan-a?", deb qo'yamiz; 3. Endi esa 2ta tasvirni 1ta rasimga birlashtiramiz va ushbu kompozitsiyani yonma-yon tasavvur qilamiz, so'ng chet tilidagi so'zni 3-4bor takror talaffuz qilamiz. Misol tariqasida, o'zbek tilida sumka ma'nosini anglatuvchi italyanacha "borsa": so'zini olaylik [1.43b].

1. Sumka so'zini o'qiymiz va sumkalar do'konini tasavvur qilamiz.

2. Sumka so'zini o'qiymiz va talaffuz jihatidan tilimizdagi qaysi so'zga o'xshashligi haqida o'ylaymiz. Masalan, sumka so'zi to'g'ri talaffuz qilinganda o'zbekchadagi borsa (bormoq) fe'liga to'g'ri keladi.

3. Italyanacha "borsa"- "sumka" va o'zbekcha "borsa" fe'l, yani sumka so'zlarini

yonma-yon yozib, bir tasvirga birlashtiramiz. “Maria bozorga borsa, sumkalar do‘koniga kirmoqchi”. Oltin qoidalardan biri shunda-ki, ona tilini yaxshi bilgan, uning grammatik qoidalari-yu, imlosini yaxshi o‘zlashtirgan va badiiy asarlar o‘qib, so‘z boyligini oshirgan tinglovchi chet tilini tezroq o‘zlashtiradi va undan samaraliroq foydalanadi. Albatta, har bir xorijiy so‘zga “muqobil” so‘zni topish mushkul. Bundan mantiqiy xulosa shu-ki, sizga yot bo‘lgan chet tili so‘zlarini o‘zbekcha talaffuziga yaqin bo‘lgan so‘zlar ishtirokida, uning asl tarjima-ma’nosini qo‘llab, ma’lum bir voqea-hodisani tasavvur qilsangiz - bu yangi so‘zni hech qachon unutmaysiz! Nega-ki, xotirangizda unga bog‘liq bir tasavvur bor [1.53b]. Shuningdek, buning uchun insonda ko‘nikma rivojlangan bo‘lishi va so‘zlarni har kuni oz-ozdan o‘rganib borishi, keyinchalik bu usulni yanada takomillashib borishiga zamin yaratadi. Jarayonni mukammallashtirishda qobiliyatlar hamda qiziqishlarga tayanish man yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, inson miyasi o‘qish bilan himoyalangan. 20 yoshdan boshlab har kuni har bir insonning miyasida 50 000ga yaqin nerv hujayralari nobud bo‘ladi va ularning o‘rnini yangilari egallamaydi. Tanadagi nobud bo‘lganidan keyin qayta tirilmaydigan yagona hujayra – nerv xujayrasidir. Agar bu yo‘qotishlar ba’zi omillar bilan ko‘paysa, muqarrar ravishda ma’lum darajada demensiyaga sabab bo‘ladi. Doimiy o‘qiydigan insonlar esa boshqa tabiiy sabab bo‘lmasa, bundan qutulish imkoniyatiga ega. Chunki o‘qish miya hujayralarini himoya qiladi. Inson hayot bo‘lsa, aqli bor bo‘lsa, o‘qish uning eng katta mukofotlariga erishadigan, beparvo bo‘lganida esa zararlarini boshqa hech narsa bilan qoplay olmaydigan holatdir [2.139b].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safronov A. Super xotira sari 7qadam, Toshkent, Butikbooks, 2024. 164b
2. Oyshagul A.O. Mukammal kun, Misbah nashriyoti, 2023. 176b
3. Sultonmurodov R.M. 5000 words in a month, Toshkent, 2020. 286b